

Vatan himoyasiga otlangan talabalar

Joriy yilning 7 iyulida, yakshanba kuni, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmasida tahsil olayotgan talabalarni harbiy qasamyodga keltirish tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbir harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmasi boshlig'i podpolkovnik Rafik Zilevich Minlishevning institut rektori, iqtisod fanlari doktori, professor Umurzakov O'ktam Pardayevichga axborot berishi bilan boshlandi. Tadbirda talabalarning ota-onalari, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar faxriylari, institut professor-o'qituvchilari ishtirot etdilar.



Harbiy qasamyod qabul qilganlarni podpolkovnik Rafik Zilevich Minlishev, professor Umurzakov O'ktam Pardayevich, barcha talabalar ota-onalari nomidan G'ayrat Temirov, talabalar nomidan Aziz Abdiyevlar qizg'in muborakbod etdilar.

Saf maydoni bo'ylab talabalarning tantanali o'tishlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasidan tashrif buyurgan katta leytenant Kamol Zoirov boshchiligidagi bayroq dor guruh, katta leytenant Javlonbek Mansurov boshchiligidagi faxriy qorovul bataloni shaxsiy tarkibining ko'rgazmali chiqishlari, kapitan Ramil Asfandiyarov boshchiligidagi alohida namunali harbiy ko'rgazmali orkestrning chiqishlari tadbirga yuqori kayfiyat bag'ishladi.



Tadbir yakunida, institut rektori tomonidan 2018/2019 o'quv yilida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida tahsil olayotgan talabalardan zahiradagi va rezervdagagi ofitserlarni tayyorlashda erishgan yutuqlari, yosh avlodni tarbiyalashdagi hissalarini, o'z majburiyatlarini vijdonan bajarganligi, namunali intizomi, o'qishi hamda xulqi bilan boshqalarga o'rnatish bo'lganligi uchun hamda «harbiy qasamyod» qabul qilish kuni munosabati bilan bir guruh talabalar, professor o'qituvchilar munosib rag'batlantirildi.

Talabalarni harbiy qasamyodga keltirishdagi tashkiliy ishlarga amaliy yordam ko'rsatgan O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi bo'limmalari mas'ullariga hamda harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmasida o'quv jarayonini doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borishda faol ishtirot etgan, Respublika Mudofaa vazirligi Vatanparvar birlashgan tahririyati xodimlariga institut rektorining tashakkurnomalari topshirildi. Taqdirlash marosimidan keyin, harbiy qasamyod qabul qilgan talabalar va ularning ota - onalariga O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi markaziy ashula va raqs ansamblining konsert dasturi namoyish etildi.



Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti harbiy kafedrasi katta o'qituvchisi Ergashev Xaydar Ikramovich axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov